

Ilmi yoritgan yulduz

Termiz davlat universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish (Fransuz tili)

1-bosqich talabasi

Qo'shyozova Kumushoy Suxbat qizi

Insoniyatning taraqqiyot etishida ustozlarning o'rni beqiyos. Chunki, hammaga ma'lumki, insoniyatning eng birinchi ustози - bu Alloh Taoloning o'zi. Bunga quyidagi oyatni misol qilib olamiz: „Alloh insonlarga barcha yaratilgan va yaratilajak narsalarga tegishli nomlarni o'rgatdi. So'ngra ularni farishtalariga ko'rsatib dedi: „Agar e'tirozingizda rostgo'y bo'lsangiz, ana u narsalarni nomlari bilan menga aytib beringiz! ”.

Bu Qur'oni Karimning Baqara surasida keltirilgan. Musulmonlarning insonlar ichida eng buyuk ustози - Payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalomdir! Har bir inson zoti uchun eng birinchi ustози uning Ota- onasidir! Undan keyingisi esa, xat-qalamni o'rgatgan, oq-qorani tanitgan ustozlaridir.

Ustoz - shu birgina so'z zamirida olam-olam ma'no va hurmat mujassam. Ustoz-bu o'zidan keyin insonlarning hayotida sezilmas, ammo juda muhim iz qoldirgan buyuk zot. Ustoz- bu misli yonib turgan sham. O'zi yonib atrofga nuru ziyo sochadi. Insonlar shu nurdan bahramand boladi.

„Ustoz - otangdek ulug' "-- degan hikmat bejiz aytilmaydi. Chunki ustozlarning izzat va hurmati hamisha yuqori bo'lgan. Ustozlarning mehnati evaziga bu dunyo obod. Ular taratgan ilm ziyosi tufayli insonlarning ma'naviy dunyosi yorug' va ravshan. Inson kim bo'lishidan qat'iy nazar, qaysi soha vakili bo'lmasin, u erishgan yutuqlari zamirida ustozning mashaqqati va mehnati yotadi. U shoh bolsin yoki gado, yaxshi yoki yomon baribir, qachonlar muallim saboqlaridan bahra olgan. Ilm - bu bebaho ne'mat. Uni egallash ham oson ish emas. Ota-bobolarimiz ilm o'rganishni igna bilan quduq qazishga o'xshatishgan. Inson shunday bebaho xazinaning sohibi bo'lishida ustozlarning o'rni beqiyos. Muhtaram prezidentimiz farmoni bilan 1997- yildan boshlab, 1- oktabr „O'qtuvchi va murabbiylar kuni " sifatida keng nishonlanmoqda. Chindan ham o'qituvchi sinf xonasiga kirib borar ekan, undan ziyo va yog'du taraladi. U bolajonlarning murg'ak qalblariga ezgulik yog'dusini baxsh etadi. Haqiqatan ham hayot maktabini beradi. U shunday „ mo'tabar zot ". Chindan ham ustozlar murg'akligimizdanoq qo'limizga qalam tutqazib, yozishni, chizishni

o'rgatgan. Qalbimizga ezgulik urug'ini sochgan. Ular bizga ma'rifat saboqlarini berib, mehr-muhabbat ulashgan. Biz erishayotgan ulkan yutuqlarimiz, qo'lga kiritayotgan g'alabalarimizda ularning hissasi katta. Hazrati Alisher Navoiy bobomiz quyidagi misralarida shunday deydi:

Hunarni asrabon netkumdir oxir
Olib tuproqqamu ketgandir oxir
(A.Navoiy ,, Farhod va Shirin")

Alisher Navoiy bobomiz bu bilan nima demoqchi: Ilm olishdan hech qachon to'xtama, izlan shunda oldinga qo'ygan orzu va maqsadlarimga erishasan. U dunyoga hech nima olib ketolmaysan, faqat o'rgangan ilming bilan tuproqqa ketasan. Chindan ham ilm olish va uni tarqatish yuksak savobli ish ekani to'g'risida Qur'oni Karimda ham hadislar keltirilgan. Shulardan birini misol qilib aytadigan bo'lsam, Payg'ambarimiz (s.a.v) ilm tarqatuvchilarga ya'ni ustozlarga shunday ta'rif berib, ular erishadigan savoblarning eng katta ekani haqida quyidagicha bayon qilganlar. " Sahiylarning eng sahiysi Alloh. Men odam bolasining eng sahiysiman. Mendan keyin sizdan eng sahiyingiz, ilm o'rganib, ilmni tarqatgan odamdir. U qiyomat kuni yolg'iz o'zi bir ummat bo'lgan holida tiriltiriladi ", deganlar.

Ko'rinib turibdiki, dunyoni o'z ilm-u ma'rifati bilan lol qilgan insonlar ham doim ustozini qadrlaganlar. Men ham o'zimning ustozlarimni qadrlayman, hurmat qilaman. Ular menga ko'plab bilimlarni o'rgatgan. Har taraflama dunyoviy va diniy bilimlar bergan. Mening hayotimda katta qadam tashlashimda shu ustozlarimning o'rni beqiyos. Ustozning maqomini mutafakkirlarning mutafakkiri Alisher Navoiy hazratlari quyidagicha tasvirlagan: „Haq yo'linda kim sanga bir harf o'rgatmish ranj ila, Aylamoq kerak oning haqqini yuz ming ganj ila ".

Haq yo'linda har kim ibodat qilgani singari, yaxshi ish ezgu amal, baxtu saodatga sabab bo'ladi. Agar inson o'zidagi ilmni boshqalarga ham chin dildan o'rgatsa, u ustoz degan sharafga sazovor bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, bizning hayotimizda ustozlarning o'rni beqiyos. Biz ularga munosib shogirdlar bo'lishimiz lozim. Chunki, biz ajdodlarimizning uzoq yillik ilm-ma'rifatlari va yuksak tajribalari asosida shakllangan boy merosga egamiz.